

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UO‘K - 633.1; KBK - 42.113; B - 99.

**EKISH ME‘YORLARINING YERYONG‘OQ BO‘YI VA BARGLAR SONIGA
TA‘SIRI**

T.A.Qoraboyev

<https://orcid.org/0009-0007-2066-193X>

S.G‘.Johonov

<https://orcid.org/0009-0004-5213-0410>

Sh.Sh.Quziyev

<https://orcid.org/0009-0003-0561-3324>

A.A.Karimov

<https://orcid.org/0009-0009-1181-381X>

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, “Agronomiya, seleksiya va urug‘chilik” kafedrası assistentlari

Annotatsiya: Surxondaryo viloyati sharoitida yeryong‘oq hosildorligiga ekish me‘yorlarining ta‘sirini o‘rganish ularni me‘yorlarini aniqlash, yeryong‘oq bo‘yi va barglar soniga ta‘sirini o‘rganish baholash, ajratish hisoblanadi. Yeryong‘oqning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi va uning sifatiga ta‘sirini aniqlash hamda yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Yeryong‘oq, o‘simlik, bo‘yi, barglar soni, ekish me‘yori, ekish muddati, variant.

Аннотация: Изучение влияния норм посадки на урожайность арахиса в условиях Сурхандарьинской области заключается в определении их норм, изучении их влияния на высоту арахиса и количество листьев, а также в их оценке и различении. Важно проводить научные исследования по определению влияния арахиса на рост, развитие, урожайность и качество, а также разрабатывать агротехнологии его выращивания.

Ключевые слова: Арахис, растение, высота, количество листьев, норма посадки, время посадки, вариант.

Abstract: In the conditions of Surkhandarya region, the study of the impact of planting standards on peanut yield is to determine their standards, study the impact on

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

peanut height and number of leaves, evaluate, and distinguish. It is urgent to conduct scientific research on the growth, development, and impact on peanut yield and quality, as well as to develop agrotechnology for cultivation.

Key words: Peanut, plant, height, number of leaves, planting rate, planting time, option.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan extiyojini qondirishda moyli ekinlar, jumladan yeryong‘oq; hosildorligini va urug‘ sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Jahon miqyosida 117 ta mamlakatda yeryong‘oq eqiladigan maydon 26,4 million gektarni tashkil etib, yalpi hosil 44,9 million tonna va o‘rtacha har gektar maydondan 1,7 tonna hosil yetishtirilgan. Ushbu ekin Osiyo qit‘asining 56%, Afrikaning 40% yer maydonlarida yetishtirilib, umumiy ishlab chiqarilgan mahsulotning 68% va 25% qismi shu qitalar hissasiga to‘g‘ri keladi

Dunyoda yeryong‘oq yetishtiruvchi yirik mamlakatlarda tuproq sharoiti, nav hususiyatlari va yetishtirish texnologiyalarining ilg‘or usullarini qo‘llash hisobiga urug‘ hosildorligini va sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yeryong‘oqning serhosil, urug‘ sifati yuqori va qayta ishlashga yaroqli bo‘lgan yangi navlarini yaratish, ularning o‘ziga xos yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish, yeryong‘oq navlarining hosili va sifatini oshirishda urug‘ ekish muddatlari, sug‘orish tartiblari va mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish me‘yorlarini maqbo‘llashtirish, o‘shishni sozlovchi biostimulyatorlarni qo‘llash natijasida yeryong‘oqning o‘shish rivojlanishini jadallashtirish, aholining yog‘-moy va qandolat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, chorvachilikni to‘yimli ozuqa bilan ta‘minlashda yeryong‘oq ekinining o‘rni beqiyos.

Shu sababli, qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish uchun eksportbop mahsulot yetishtirish hajmini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, tuproq unumdorligini saqlash maqsadida sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida yeryong‘oq navlarini maqbul ekish muddatlari, sug‘orish tartibi, mineral

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

o‘g‘itlar va biostumulyatorlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu tajribada olingan natijalar tahlillari keltirib o‘tilgan.

J.Xudayqulov tomonidan o‘tkazilgan tajribalarda Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida rayonlashgan yeryong‘oqni “Qibray-4” navini poya balandligi ekish muddatlariga qarab 49,0; 52,3; 55,7; 45,3 sm ni, “Salomat” navida esa bu ko‘rsatkichlar 53,7; 55,4; 60,4; 49,2 sm ni tashkil etdi. Bu natijalarga ko‘ra, “Salomat” navining poyasi tik o‘ssishi hisobiga nazoratdagi naviga nisbatan baland ekanligi aniqlangan [1; 36-b.].

N Yodgorov, Q To‘raqulovlarning ma‘lumotlariga ko‘ra Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doydan so‘ng takroriy ekin sifatida ekilgan yeryong‘oq ekinida ko‘chat qalinligining ortishi o‘simlikning vegetativ qismini rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qilgani kuzatildi [2; 28-29-b.].

X.N.Atabaeva, J.B.Xudoyqulov ma‘lumotlariga ko‘ra, yeryong‘oqning “Salomat” navi mineral o‘g‘itlar va suvga talabchanligi yuqori ekanligi aniqlangan. Mineral o‘g‘itlar hisobiga hosil bo‘lgan dukkak miqdori bo‘yicha eng yuqori natijalar N₁₅₀ P₁₅₀ K₁₀₀ k/ga me‘yorida qo‘llanilganda kuzatilgan. Bu me‘yorlar oshirilganda esa o‘g‘itlarning ta‘sir etish samaradorligi kamaygan. Dukkak hosili shakllanishida sug‘orish tartiblariga nisbatan mineral o‘g‘itlarning ta‘siri yuqori ekanligi aniqlangan [3; 47-b.].

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida olib borilib, bunda «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследования в поливных хлопковых районах», «Методы агрохимических анализов почв и растений (Тошкент, 1963)» kabi uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi. Tajribalarda olingan ma‘lumotlarni ishonchliligi umum qabul qilingan matematik-statistik ishlov berish Misrosoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubiy qo‘llanmalari asosida taxlil qilingan.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Natijalar va ularning tahlili. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlashda o‘simlik bo‘yi va barglar soni hamda transpiratsiya jadalligi qanday darajada bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekish me‘yorlarining yeryong‘oq bo‘yi va barglar soniga ta’siri o‘rganilganda ekish me‘yorlarini ekinni bo‘yi va bargiga bevosita ta’siri kuzatildi.

2022 yilda olingan ma’lumotlarga ko‘ra, yeryong‘oq takroriy muddatda ekilganda amal davri oxirida o‘simlikni bo‘yi 1-variantda 67,0 smni, barglar soni 71,3 donani, 2, 3, va 4-variantlarda tegishli ravishda 68,5 sm; 70,7 dona; 74,4 sm; 70,9 dona; 70,7 sm; 73,7 donani tashkil etdi. Demak, yeryong‘oqda ekish me‘yorlarini oshib borishi o‘simlikni bo‘yini 1,5 smdan 7,4 smgacha baland bo‘lishini, barglar sonini esa 1,4 donadan 3,6 donaga ko‘p bo‘lganligi aniqlandi.

Eng yuqori ko‘rsatkichlar esa 3-variantda, gektariga 280 ming dona urug‘ ekilgan variantda kuzatilib, natijalar 74,4 sm va 73,9 donani tashkil etdi.

Eng past ko‘rsatkichlar esa 1-variantda, gektariga 180 ming dona urug‘ ekilgan variantda kuzatilib, natijalar 67,0 sm va 71,3 donani tashkil etdi.

Ekish me‘yorlarining yeryong‘oqning bo‘yi va barglar soniga ta’siri, *kun*, 2022 *yil*

Var №	Ekin turi	Ekish muddati	Ekish me‘yori ga/ming dona	1.08		15.08		1.09		15.09		1.10	
				Bo‘yi, (sm)	Barg soni (donada)	Bo‘yi, (sm)	Barg soni (donada)	Bo‘yi, (sm)	Barg soni (donada)	Bo‘yi, (sm)	Barg soni (donada)	Bo‘yi, (sm)	Barg soni (donada)
1	Yeryong‘oq	30.06	180	13,6	15,6	39,7	37,2	50,3	51,5	58,2	59,1	67,0	71,3
2			230	13,5	15,5	38,6	37,2	45,5	47,6	53,5	55,3	68,5	70,7
3			280	14,6	16,2	39,4	38,8	55,5	57,1	63,7	65,1	74,4	73,9
4			330	14,7	16,6	41,3	38,4	56,9	58,0	64,7	64,9	70,7	71,9

Xulosa. Olingan natijalarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Surxondaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlarida yeryong‘oq ekinini ekish me‘yori gektariga 280 ming dona urug‘ ekilgan variantda o‘simlik bo‘yini 3,7 smdan 7,4 smgacha

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

baland bo‘lishini, barglar sonini esa 2,0 donadan 3,2 donaga ko‘p bo‘lganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Xudayqulov J. Yeryong‘oq shifobaxsh o‘simlik. // AGRO ILM 2 (46)-son, 2017. -36 b.

2.Yodgorov N., To‘raqulov Q. Takroriy yeryong‘oqning rivojlanish fazalariga ekish muddat va me‘yorlarining ta’siri. // Agro biznes inforum. №8/163 2020. -28-29 b.

3.Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B. “Salomat” navining biometirik va hosildorlik ko‘rsatkichlariga sug‘orish tartiblari va o‘g‘itlash me‘yorlarining ta’siri. // Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini. 5-son, 2019. -45-46-47 b.